

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI
Boshlang'ich ta'lim kafedrası

SHAROPOVA ZILOLA INATULLAYEVNA

5141600-“Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish” yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

***“BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA O'YINLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH”***

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar – **p.f.n. SH.NURULLAYEVA**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Pedagogika-psixologiya fakulteti

dekani _____ dots.T.Rasulov

“ _____ ” _____ 2011 yil

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Boshlang'ich sinflarda o'yinli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari.	6
I.1. Ta'limiy o'yinlar – o'qitish jarayoni samaradorligini oshirish vositasi sifatida	6
I.2. Boshlang'ich sinflarda ta'limiy o'yinlardan foydalanishning joriy holati	11
II bob. Boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	14
II.1. O'qish darslarini o'yinli texnologiyalar asosida tashkil mazmuni	14
II.2. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yinli texnologiyalardan foydalanish yo'llari.	26
Xulosalar	54
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	56
Ilovalar	58

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz xalq ta'limi oldida turgan asosiy vazifa har tomonlama kamol topgan sog'lom, qobiliyatli, o'z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ulug' maqsadni ro'yobga chiqarish xalq ta'limi tizimiga qarashli barcha xodimlar va keng o'qituvchilar ommasidan o'z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish xilma-xil metodik usullarni o'ylab topish hamda uni maktab hayotiga tadbiq etishni talab qiladi. Bugun maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilar ilm-fan, texnika taraqqiyoti erishgan bir qator yutuqlardan bahramand bo'lgan ma'lum darajada bilimli kishilardir.

O'quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg'ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Psixologlarning aniqlashicha bolalar o'qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma'lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o'zlari mulohaza yuritib mustaqil bajargan ishlari vositasida o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o'quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko'rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko'plab o'quv materiallarini hayolidan o'tkazadi. O'xshash hodisalarni taqqoslaydi. O'zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O'qituvchilarning tayyor holda bergan ma'lumotida esa o'quvchi fikrlash faoliyati to'la ishga kirishmasdan to'g'ri javobni o'zlashtirib oladi. O'xshash hodisalarga duch kelishi bilan o'qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi. Davlat ta'lim standarti va amaldagi maktab dasturlarida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan materiallar ancha murakkab bo'lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi.

Bugungi Davlat ta'lim standarti va ta'lim tizimi o'qituvchilar oldiga o'ta mas'uliyatli vazifalar yuklamoqda. Muallim har bir o'tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir minutidan unumli foydalanishi zarur. Mashg'ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo'lgan bilimlar hajmini, o'zida hosil qiladigan ko'nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o'z navbatida o'quvchining mashg'ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o'quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

O'yinlar bolalarda jamoatchilikni his etish, intizomli bo'lish, jasur, qat'iyatli bo'lish, qiyinchiliklarni yenga bilish kabi sifatlarning tarkib topishida yordam beradi. Bola kattalarning kundalik hayotiy faoliyatidagi yumushlarni o'yin orqali bajarishga intiladi. Garchi bolalar o'yinlari mazmunan kattalar faoliyatining bir ko'rishini bo'lsa-da, uning o'ziga xos jihatlari bor.

Birinchidan, bola o`yinni o`z xohishi bilan erkin va ijodiy bajaradi. Bu o`yinlar emotsional bo`lib, bolani o`ziga rom qilib oladi. Bola o`yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, o`rtoqlik hissi kuchayadi. Bolalar o`yinlari mazmuniga ko`ra o`yinchoqli, harakatli va didaktik turlarga bo`linadi. Bu o`yinlarning barchasi bolalarni faoliyat yuritishga chorlaydi. Didaktik o`yinlar esa bolaga ta`lim berishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Demak, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish yo'llarini ilab chiqish dolzarb muammolardan biridir va bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining «**Boshlang'ich ta'lim tizimida o'yinli texnologiyalardan foydalanish**» tarzida tanlanishi to'la asoslidir.

Bitiruv malakaviy ishimiz **maqsadi** boshlang'ich ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish metodikasini ishlab chiqishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishimiz **ob'ekti** boshlang'ich ta'lim tizimida o'yinli texnologiyalardan foydalanish jarayoni.

Tadqiqotimiz **predmeti** boshlang'ich sinflarda ta'limiy o'yinlardan foydalanish yo'llari va usullaridan iborat.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida quyidagi **vazifalarni** amalga oshirishga harakat qildik:

1. Boshlang'ich ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish muammolari o'rganish.
2. Ta'limiy o'yinlar va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rnini tadqiq etish.
3. Hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish darajasini aniqlash.
4. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasini va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishimiz **ilmiy farazini** quyidagicha belgiladik: boshlang'ich ta'lim tizimida o'qituvchilar ta'limiy o'yinlardan foydalanishga doir ilmiy-metodik bilimlar bilan qurollantirilsa;

- boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida o'yinli texnologiyalardan samarali foydalanilsa;

- ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari va ta'lim mazmuniga mos holda tanlansa muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishimizning **nazariy ahamiyati** ta'limiy o'yinlar va ularning boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasidagi o'rniga doir nazariy tahlillar bilan belgilanadi.

Tadqiqotimizning **amaliy ahamiyati** esa izlanishlarimiz davomida ishlab chiqilgan ta'limiy o'yinlardan boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida foydalanishga doir tavsiyalar bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning **ilmiy yangiligi** tadqiqot davomida ishlab chiqilgan ta'lim jarayonida o'yinlardan foydalanish texnologiyasi bilan izohlanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning **metodologik asosini** falsafaning bilish nazariyasi va Prezident I.Karimovning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga bag'ishlangan asarlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida suhbat, kuzatish, anketa so'rovlari va qiyosiy tahlil kabi **pedagogik ilmiy tadqiqot metodlaridan** foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, to'rtta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

I.1. Ta'limiy o'yinlar – o'qitish jarayoni samaradorligini oshirish vositasi sifatida

O'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'yin dunyoni va o'zligini anglashda, qiziqishlarini qondirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini engillatish va o'yin orqali bilim berish maqsadida yaratilgan.

A.Ya.Bobomurodova ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini o'yin xarakterida qurish lozimligini ta'kidlaydi va shunday deydi:

«Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga, o'rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini anglab, mustaqil ravishda hukm va xulosalar chiqarishga, har bir o'quvchiga o'zligini namoyish etish va mulohazalarini erkin bayon etib, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratadi. Tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, qat'iylik, o'quv qiyinchiliklarini mustaqil engish kabi fazilatlarni tarkib toptirish, ko'pincha, ta'limiy o'yinlar orqali amalga oshiriladi» (Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin topshiriqlaridan foydalanish: Ped. fan. nom. ... dis. –Toshkent, 1996. –14-b.).

Ko'rinadiki, metodist A.Ya.Bobomurodova ta'limiy o'yinlarning mohiyati va til o'rganishdagi ahamiyatini to'la ochib bera olgan.

L.V.Artemova esa ta'limiy o'yinlarning muhim jihatlari, vazifasi va ahamiyati haqida shunday deydi: «Didaktik o'yinlarning muhim jihatlari shundaki, o'quv topshiriqlari bolalarga o'yin shaklida taqdim etiladi. Bolalar o'yin jarayonida bilimlarni o'zlashtirayotganlari, ma'lum predmetlardan foydalanish malakalarini va o'zaro muomala madaniyatini egallayotganlarini

sezmaydilar. Har bir didaktik o'yin ta'limiy va tarbiyaviy mazmuni, o'yin topshiriqlari, o'yin harakatlari, o'yin va tashkiliy munosabatlardan iborat bo'ladi» (Артемова Л.В. Окружающий мир в дидактических играх: Книга для воспитателя детского сада и родителей. – Москва: Просвещение, 1992. стр.3).

O'yinlar bolalarda jamoatchilikni his etish, intizomli bo'lish, jasur, qat'iyatli bo'lish, qiyinchiliklarni yenga bilish kabi sifatlarning tarkib topishida yordam beradi. Bola kattalarning kundalik hayotiy faoliyatidagi yumushlarni o'yin orqali bajarishga intiladi. Garchi bolalar o'yinlari mazmunan kattalar faoliyatining bir ko'rishini bo'lsa-da, uning o'ziga xos jihatlari bor. Birinchidan, bola o'yinni o'z xohishi bilan erkin va ijodiy bajaradi. Bu o'yinlar emotsional bo'lib, bolani o'ziga rom qilib oladi. Bola o'yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, o'rtoqlik hissi kuchayadi. Bolalar o'yinlari mazmuniga ko'ra o'yinchoqli, harakatli va didaktik turlarga bo'linadi. Bu o'yinlarning barchasi bolalarni faoliyat yuritishga chorlaydi. Didaktik o'yinlar esa bolaga ta'lim berishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Didaktik o'yinlar tarbiyachilar va maktab o'qituvchilari tomonidan ijod qilingan. Bu o'yinlar bog'chalarning katta guruhlaridagi bolalarga va maktab o'quvchilariga mo'ljallanadi. O'yin orqali bola jamoani tushunadi. O'zi bajarayotgan mashg'ulotga nisbatan ongli munosabatda bo'ladi. Har bir mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy diqqatini ishga soladi. O'yinda ilg'orlikka, g'alaba qozonishga intiladi. Maktab bola hayotida juda muhim o'rin turadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif haqidagi bilimlarni egallaydi. Kecha o'yin bilan band bo'lib, erkin faoliyat ko'rsatib yurgan bolaning birdan maktabning ichki qonun-qoidalariga moslashishi, belgilangan tartib asosida mashg'ulotlarga o'z vaqtida qatnashishi oson kechmaydi. Shu tufayli kichik maktab yoshidagi bolalar o'yin bilan bog'liq darslarda juda faol qatnashadi. Biz o'qituvchilar buni hisobga olib, darslarga o'yin elementlarini kiritishimiz va undan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarda samarali foydalanishimiz lozim.

Bugun maktabga ilk bor qadam qo'ygan o'quvchining kechagi mashg'uloti o'yin edi. Bolada boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan materiallarni o'zlashtirib olishga yordam beradigan epchillik, hozirjavoblik, voqealarni bir-biriga taqqoslash, sinchkovlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanish davri bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bilimlarning o'zlashtirib olinishiga erishish uchun ana shularga tayanish va uni parvarish qila borish lozim. Bu o'rinda Samarqandlik pedagog A. Umarovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir. "Tasavvur qiling, o'quvchi ma'lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin maktab o'quvchisi bo'ladi. Uning vazifasi o'zgaradi. Bir kecha- kunduzda o'rtacha 4 soat ta'lim oladi. Kechagi o'yinqaroq bola bugun 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir joyga joylab... o'qituvchi bilan

muloqatda bo`ladi. O`quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi. Ana shu vaqtda o`qituvchi loqayd, mas`uliyatsizlik qilsa, uning bu holati ota-onalarning holati bilan hamohang bo`lib qolsa, ota-ona ham yordam berishdan o`jiz, nazorat qilishga “vaqti yo`q” bo`lsa, o`sha o`quvchilar bo`sh o`zlashtiruvchi, tartibsiz yomon o`quvchilarga aylanadilar. O`z kasbining mohir ustasi bo`lgan fidokor o`qituvchi ana shu paytda o`quvchilarni qo`lga oladi, ularning mehrini, ishonchini qozonadi: o`quv mashg`ulotlariga qiziqish uyg`otadi.¹

Chunki kichik maktab yoshidagi o`quvchilar o`yinlarni juda berilib bajaradi va o`zi bajarayotgan ishidan katta qoniqish hosil qiladi. Dars jarayoniga o`yin elementlarining kiritilishi bolaning kundalik hayotida orttirgan ko`nikma va malakalarining ishga tushishi natijasida bola o`zini juda yengil sezadi, erkin harakat qiladi, bir oz dam ham oladi. Ilg`or o`qituvchilar bolalarga bu xususiyatlaridan kelib chiquvchi darslarni tashkil qilib ana shu imkoniyatdan samarali foydalanadi. Natija, albatta yomon bo`lmaydi. Negaki o`quvchi qiziqish bilan ongli ravishda darslarga qatnashsa, mashqlarni bajarishga faol ishtirok etsa, berilayotgan bilimni to`la o`zlashtirib oladi. Keyingi darslarda o`rganiladigan bilimlarni egallashda ham o`quvchilarning imkoniyatlari hisobga olinmay, darslarni bir xil uyushtirish mashg`ulotlarning zerikarli bo`lishiga olib keladi. Bunday darslar o`quvchilarda hech qanday qiziqish uyg`otmaydi. Pirovardida bu o`quvchilar faolligining susayishiga olib keladi.

Dunyoning ilg`or mamlakatlari tajribasida sinab ko`rilgan va bugun o`qish tizimimizdan mustahkam o`rin olgan ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borayotgan bizning mamlakatimizda ta`lim-tarbiyaga katta e`tibor berilmoqda. Qisqa vaqt ichida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta`lim to`g`risida qonun” ning qabul qilinishi va uning hayotga tadbiiq etilishi, yosh avlod tarbiyasining umummilliy ahamiyatga ega bo`lgan ish darajasiga ko`tarilishi mamlakatimizda xalq ta`limiga ko`rsatilayotgan ulkan g`amxo`rlik hisoblanadi. Ana shunday bir sharoitda barcha fanlar qatori ona tili o`qitilishiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Chunki ona tili barcha o`quv fanlarining asosidir. Ona tilini o`rganish bolaga ta`lim berish uni tarbiyalash va rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitishning asosiy vazifasi ushbu fanning bilimlar tizimini egallash, so`zlarning grammatik shakllarini ishlab chiqish, savodli yozuv ko`nikmasini hosil qilishdir. Bu vazifalarni ro`yobga chiqarish o`ta murakkab bo`lib, o`qituvchining xilma-xil o`qitish metodlarini egallashini, o`quvchilarni mumkin qadar ijodiy fikrlashga o`rgatishni va har bir mashg`ulotga qiziqitira bilishni taqozo qiladi.

¹ A Umarova . O`yin musobaqa darsi “ Boshlang`ich ta`lim -1992, 1-son , 48-bet.”

Bolalarning yozuv savodxonligini oshirish uchun uning xotirasida soʻzning yorqin tassavurini mustahkamlash, soʻz tarkibi va gap boʻlaklarini toʻgʻri hamda tez farqlash qobiliyatini oʻstirish kerak. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar asosan tasavvur qilish orqali fikr yuritadilar. Ona tili qonun-qoidalari, hodisalari mavhum fikr yuritishni taqozo etadi. Shu tufayli ular koʻpincha oʻynash, jismoniy harakat qilishga intiladilar. Amaldagi oʻquv dasturiga asosan oʻyin mashgʻulotlari bugungi darslarning qurilishida tez-tez uchrab turadi. Chunki bolaga berilayotgan bilimni oʻyinlar vositasida singdirish quruq qoida yodlash va surunkasiga mashq qildirishdan qiziqroq tuyuladi va oʻtilgan mavzuning mustahkam esda saqlanishiga imkon beradi.

Oʻyinga bir-ikki nafar bolaning faol qatnashishi bilan chegaralanib qolmaslik zarur. Unga oʻquvchilarning aksariyat qismi, iloji boʻlsa hammasi faol qatnashishi kerak. Chunki oʻyin bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalaydi. Oʻyinlarni bolalar jamoa boʻlib bajarar ekan, uning barcha aʼzolari faol qatnashgandagina koʻzlangan maqsadga erishish mumkin. Bu mashgʻulotda barcha oʻquvchi bir maqsad yoʻlida harakat qiladi. Hamma gʻolib boʻlishga intiladi. Bunday holat har bir oʻquvchining maʼsuliyatini oshiradi.

Javob berayotgan oʻquvchi oʻz guruhining ishonchini oqlashga harakat qiladi. Notoʻgʻri javob bersa, bolalar oldida oʻzini noqulay sezadi, ayrim hollarda oʻzini-oʻzi koyiydi. Keyingi oʻyinlarga puxta hozirlik koʻradi. Bunday mashgʻulotlar bolalarni koʻproq oʻqishga chorlaydi. Gʻoliblik nashidasini birgalashib surishga undaydi.

Oʻyinda kimdir magʻlubiyatga uchraydi. Bu tabiiy hol. Shuning uchun oʻyin bellashuvlar bolalarni yana bir xislatga- magʻlubiyatni tan olishga oʻrgatadi. Bu esa bola tarbiyasida juda muhim. Baʼzan oʻquvchilar orasida oʻz magʻlubiyatini tan olmay, kimdandir kamchilik axtarishga, hakamlarni “sotilgan”likda ayblashadi.

Maktab hayotida bunday voqealar tez-tez uchrab turadi. Bunday holatda oʻquvchiga yotigʻi bilan tushuntirishdan zerikmaslik lozim. Bir-ikki marta shunday munozaradan keyin oʻyin mashgʻulotlarini toʻxtatib qoʻymaslik kerak emas.

Biz didaktik oʻyinlarni mazmuniga koʻra tinch oʻyinlar, harakatli oʻyinlar, aralash tipdagi oʻyinlar; shakliga koʻra musobaqa oʻyinlari, sahna oʻyinlariga ajratdik.

Harakatli oʻyinlarga ona tili taʼlimi jarayonida qoʻllaniladigan musiqali oʻyinlar va sahna oʻyinlarini misol qilib keltirish mumkin.

Aralash oʻyinlar oʻzida ham harakatli oʻyinlar, ham tinch oʻyinlar elementlarini aks ettiradi.

Tarqatma materiallar asosida uyushtiriladigan oʻyinlar, soʻz oʻyinlari, kesma harflar bilan oʻtkaziladigan oʻyinlar **tinch oʻyinlarga** misol boʻla oladi.

I.2 Boshlang'ich sinflarda ta'limiy o'yinlardan foydalanishning joriy holati

Boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchilar ta'limiy faoliyatida ham, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida ham muhim davr hisoblanadi. Ushbu jarayonda o'quv-tarbiyaviy jarayonning tashkil etilganlik darajasini, hozirgi davr maktablarida savod o'rgatish jarayoniga nisbatan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlilik darajasini aniqlash maqsadida Qarshi shahridagi 21- umumiy o'rta ta'lim maktabidagi joriy holatni o'rgandik. Ushbu maqsadda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga anketa savollari bilan murojaat qildik. Anketa so'rovlarida 12 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirok etdilar. So'rov natijalari tahlili quyidagicha bo'ldi. (Anketa savollarining to'liq matni 1-ilovada keltirilgan).

«Boshlang'ich ta'limning uzluksiz ta'limdagi o'rni qanday deb hisoblaysiz?» deb murojaat qilganimizda o'qituvchilarining barchasi bu davrning o'ta mas'uliyatli ekanligini ta'kidladilar. Bu javob bizni quvontirdi. Chunki, savod o'rgatish davriga bunday munosabat albatta, o'qituvchilar faoliyatida ham aks etishi lozim.

Ammo, «Ta'limiy o'yinlarga taalluqli qanday metodik manbalar bilan tanishsiz?» deb so'raganimizda, hech bir o'qituvchi aniq javob bera olmadi. Ulardan 2 nafari boshlang'ich sinf darsliklariga qo'shimcha tarzda nashr etilgan o'qituvchi kitoblarini va davriy nashrlarda berilayotgan metodik ishlaridan xabardor ekanliklarini ta'kidladilar. Vaholanki, Sharq va G'arb pedagoglarining ta'limiy o'yinlar borasidagi yutuqlari maqtovga sazovordir.

Shuningdek, boshlang'ich ta'lim darslarini tashkil etishga bo'lgan munosabat anchagina tashvishga soldi. Chunki «Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida qanday metodlardan foydalanasiz?» deb so'raganimizda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'pchiligi, ya'ni 9 nafari ko'rgazmalilik, turli tarqatma materiallaridan foydalanish, tovushlardan bo'g'inlar, bo'g'inlardan so'zlar, so'zlardan esa gaplar tuzishgacha bo'lgan metodlarni sanab o'tdilar, xolos. 3 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi esa alifbe va yozuv darslarini bog'lab o'qitishni yoqladilar. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan metodlar ham, albatta samarador metodlardir. Ammo doimiy ravishda bir xil metodlardan foydalanish, o'yinqaroq bolalarni darhol anchagina jiddiy mashg'ulotlarga band etish boshlang'ich sinf darslarini kichik maktab yoshidagi bolalar uchun zerikarli va og'ir jarayon bo'lib qolishiga sabab bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'limiy o'yinlarga bo'lgan munosabati ancha jiddiy. Ularning ko'pchiligi bir qator o'yinlarni boshlang'ich sinflar darslarida foydalanish uchun qulayligini aytib o'tdilar. Ammo bu o'yinlar deyarli bir xil edi. Bundan tashqari «Didaktik o'yinlardan darsning qaysi qismida ko'proq foydalanasiz?» deb so'raganimizda, 10 nafar

boshlang'ich sinf o'qituvchisi «Asosan dam olish daqiqalarida hamda o'tgan mavzni mustahkamlashda» deb javob berdilar.

Vaholanki, to'g'ri foydalanilgan didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida yangi mavzuni bayon qilishda hamda mustahkamlashda eng qulay metod hisoblanadi. Zero, o'yin bilimlarni o'zlashtirish yo'lidagi har qanday mashaqqatlarni osongina engib o'tishga, qiyin jarayonni o'yinlar bilan uyg'unlashtirgan holda engillatishga yordam beruvchi ta'lim usulidir.

Maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilariga yana «Boshlang'ich ta'lim jarayonini qiziqarli tashkil etish uchun qanday tavsiyalar berasiz?» deb murojaat qildik. Ularning 7 nafari «Boshlang'ich sinf darslarini samarali tashkil etishga doir metodik ishlanmalar va qo'llanmalar ko'proq nashr etilishi lozim» deb taklif kiritdilar.

5 nafar o'qituvchi esa «Boshlang'ich sinf o'qish va ona tilidarslari uchun ham, matematika darslari uchun ham ko'rgazmali va tarqatma materiallar tayyorlansa maqsadga muvofiq bo'lar edi» deb taklif kiritdilar.

Tadqiqot davomida bir qancha o'qituvchilarning darslarini kuzatdik. Kuzatilgan 8 soatlik dars davomida o'qituvchilarimizning darslarni qiziqarli tashkil etish uchun baholi qudrat harakat qilayotganliklarini, ammo metodik va ko'rgazmali materiallarning kamligi o'qituvchilar faoliyatining bir xilligiga olib kelayotganligiga amin bo'ldik. Ular qo'llayotgan metodlar va diaktik o'yinlar bir necha yil burun ishlab chiqilgan va hozirgi kun talabiga javob bermaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'ziga xos sinov vazifasini o'tayotgan «ochiq darslar»dagina anchagina yangiliklarni kuzatishga va darslarning qiziqarli tashkil etilatganligiga guvoh bo'ldik. Bizning niyatimiz va vazifamiz esa har bir darsni ana shunday «ochiq darslar» tarzida tashkil etish bo'lib qolmoqda.

Shu maqsadda bir qator dars ishlanmalaridan namuna keltiramiz. Darslarning shu zaylda tashkil etilishi barkamol shaxs tarbiyasida muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

II BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

II.1. O'qish darslarini o'yinli texnologiyalar asosida tashkil etish mazmuni

Ta'lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar ham o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish vositasi sanaladi. Didaktik o'yinlarga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ta'lim beruvchi faoliyat deb qarash lozimdir.

Ta'limiy o'yinlarning turli xil tasnifi mavjudligi xususida ishning birinchi bobida to'xtalib o'tgan edik. O'yinlar mazmuni va amalga oshirish shakliga ko'ra sinflarga ajratilgan edi. Quyida boshlang'ich sinf ona tili darslarida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar va ularning mustaqil fikrlash bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

Tinch o'yinlar

«O'zim tekshiraman». Bunday o'yinlarni o'tkazishda kichik hajmdagi diktant matni tanlanadi va u darsning kirish qismida uyushtiriladi. O'qituvchi o'quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o'quvchilar yozib bo'lishgach, o'qituvchi xattaxtaga diktantni yozib ko'rsatadi. Mabodo diktant oldin xattaxtaga yozilib, usti yopib qo'yilgan bo'lsa, o'qituvchi pardani ochadi. O'quvchilar esa unga qarab o'zlari yozgan diktantni tekshiradilar. Bunday diktantlarni alifbe davrida ham qo'llash mumkin bo'lib, o'qituvchi avvaliga faqat harflardan, so'ngra (undosh harflar bilan tanishtirilgach) bo'g'inlardan iborat quyidagicha turli variantlarda diktant yozdirsa, o'quvchilarning o'quv-biluv malakalari shakllana boradi.

1-variant: O,o, I,i, U,u, A,a, i,¢.

2-variant: -Lo, -no, -to, -mi, -un, -in.

3-variant: Bola, lola, ona, zar, par.

4-variant: Bugun havo issiq.

«Hikoya». O'qituvchi xattaxtaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Shu jarayonda ularning lug'at boyligi oshishi bilan birga, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi.

O'qituvchining vaqti-vaqti bilan rag'batlantirishi o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu o'yindan darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda ham bemalol foydalanish mumkin. Masalan: Nafisa, soat, yomg'ir, kitob.

«U kim? Bu nima?». Stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu predmetlardan birortasini ta'riflaydi. O'quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar.

Bu o'yinning afzallik tomoni shundaki, uni dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, qo'llariga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, yangi mavzuni bayon qilish jarayonida foydalanish mumkin.

Bu o'yin o'quvchilarda ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga imkon beradi.

Masalan: U shar shaklida. Uni mashhur sportchilarimiz ham stadionlarda o'ynaydilar. U yosh bolalarning ham sevimli o'yinchog'i. (javob: koptok).

«Topag'on». O'qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O'quvchilar shu belgini o'zida aks ettirgan predmetlar nomlarini aytadilar. Eng ko'p to'g'ri javob topgan o'quvchilar g'olib sanaladi. Bu o'yinni o'tkazish o'quvchilarga so'z turkumlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar berish jarayonini engillashtiradi. Bundan tashqari, hozirjavoblik, mustaqillik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantiradi.

Savol: Nima oq rangda?

Javob: qog'oz, daftar, bulut, parda, qor, buvimning sochlari, ..

«Noto'g'ri jumla». Bu o'yin suratlar asosida o'tkaziladi. O'qituvchi suratni tasvirlab berish davomida suratga tegishli bo'lmagan jummalarni ham ishlatadi. O'quvchilar ziyraklik bilan shu jumlani topishlari lozim.

O'quvchilardan bu o'yin davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ular suratni sinchkovlik bilan kuzatish bilan bir qatorda o'qituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab turadilar. Har bir noto'g'ri jumlani topish ularning o'ziga bo'lgan ishonchi va darsga qiziqishini orttiradi.

Bu o'yindan faqat ona tili darslarida emas, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham foydalanish mumkin.

«Bo'lishi mumkin emas». O'yin davomida o'qituvchi matnni o'qiydi. O'quvchilar bo'lishi mumkin bo'lmagan voqealar ifodalangan jumla yoki gapni topishlari lozim.

Hazil-mutoyiba bilan o'tadigan bu o'yin ziyraklik, sinchkovlik va kuzatuvchanlikni talab qilishi bilan birga, hikoya tinglash ko'nikmasini shakllantirishga ham yordam beradi.

Bu o'yin bir necha marta o'tkazilgach, keyinchalik o'quvchilarga mustaqil ravishda shunday hikoyachalar tuzishni ham topshirish mumkin.

Namuna: Dushanba dam olish kuni bo'lgani uchun Olim maktabga bormadi. U singlisi Vazira bilan hayvonot bog'iga bordi. Ular hayvonot bog'ida suvda suzib yurgan sherni, qafasda sayrayotgan baliqlarni va kattakon vahshiy bulbulni ko'rdilar.

«Harflarni top». Bu o'yinni og'zaki yoki rasmi testlarda tovushlarning o'rnini topishda qo'llaniladigan rangli to'rtburchak qog'ozchalar vositasida ham o'tkazish mumkin. Bunda ikki xil

rangdagi to'rtburchak qog'ozchalar olinadi. O'qituvchi so'zlarni o'qiydi. O'quvchilar esa mustaqil ravishda topish lozim bo'lgan tovush o'rnini bir xil rangdagi, qolgan tovushlar o'rnini ikkinchi xil rangdagi qog'ozchalar bilan ko'rsatadilar. Masalan «ona» so'zidagi «a» tovushining o'rnini rangli qog'ozchalar bilan shunday ko'rsatadilar:



yoki tovushlar sxemasini quyidagicha chizib ko'rsatadilar:



O'qituvchi bu o'yindan savod o'rgatishda samarali usul sifatida foydalanishi mumkin.

O'quvchilarning nutqini rivojlantirish maqsadida o'yinni og'zaki ham o'tkazish mumkin. Masalan: «Maktab» so'zidagi «a» tovushining o'rnini topib aytish kerak bo'lsin. «Maktab» so'zida «a» tovushi birinchi bo'g'inda ikkinchi o'rinda «m» tovushidan keyin turibdi, ikkinchi bo'g'inda esa «t» tovushidan keyin ikkinchi o'rinda turibdi.

«O'qib ko'r-chi». O'qituvchi o'quvchilarga yozma va bosma harflar bilan katta-katta qilib yozilgan so'zlarni ko'rsatadi. O'quvchilar o'qiydilar. Tez va to'g'ri o'qigan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Shu xildagi o'yinlar vositasida o'quvchilarning o'qish texnikasi shakllantiriladi. Bu o'yinni «Alifbe» davrida ham qo'llash mumkin. Uni undosh tovushlar hali o'rganilmagan davrda faqat tovushlar, keyinroq esa bo'g'inlar, so'zlar, gaplar vositasida o'tkazish mumkin.

«Davom ettir». Bu o'yinda o'qituvchi hikoya boshlaydi. O'quvchilar uni mustaqil davom ettiradilar. Bunda o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanib, bayon yoki insho kabi ijodiy ishlar yozish ko'nikmasi rivojlanadi va so'z boyligi ortadi. Bundan tashqari, ularda o'ziga ishonch hissi shakllanib boradi.

«Davom ettir» o'yinidan ona tili, o'qish darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

Masalan: «Bugun men barvaqt maktabga kelayotganimda ... ».

«Safar». O'quvchilarga maktabdan yoki o'z uylaridan ma'lum bir joygacha bo'lgan yo'lni tasvirlash topshiriladi. O'quvchilar bir necha kun davomida «ob'ekt»ni kuzatadilar va uni og'zaki tasvirlab beradilar.

Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat-e'tibor talab etiladigan bu o'yin vositasida Vatanga e'tiqod, tabiatga muhabbat hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, o'quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug'at boyligi ortadi, mustaqil fikrlash malakalari shakllanadi.

Shu bilan birgalikda o'quvchilarning yo'l harakati qoidalarini qay darajada bilishlarini ham aniqlash mumkin. «Safar» o'yinidan mustahkamlash darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

Masalan: Uydan sport majmuasigacha bo'lgan yo'l.

Men darsdan keyin sport majmuasidagi kurash to'garagiga qatnayman. U erga borish uchun uydan chiqib, chap qo'l tarafga qarab yuraman. Katta yo'ldan o'tish uchun piyodalarga ajratilgan yo'lak bo'ylab borib, svetofoarning yashil chirog'i yonganda maxsus ajratilgan joydan o'tib olaman. To'g'rida sport majmuasi ko'rinib turadi.

«Sirli so'z». O'qituvchi o'quvchilarga sirli katakchalarda bir xil so'z necha marta yozilganligini topishni aytadi. Eng ko'p topgan o'quvchi g'olib sanaladi. «Sirli so'z» o'yini o'quvchilarni boshqotirmalarni hal etishdagi dastlabki ma'lumotlar bilan tanishtiradi va ularning fikr doirasini kengaytirishga yordam beradi.

Masalan: Quyidagi katakchalarda «Kiyik» so'zi necha marta yozilgan?

2.3.1-rasm

K	I	Y	I	K
I	I	I	I	И
Y	I	Y	I	Y
I	I	I	I	I
K	I	Y	I	K

«Zanjir». O'qituvchi o'yinni boshlab o'quvchilarga bitta so'z aytadi. O'quvchilar bu so'z qaysi harf bilan tugagan bo'lsa, shu harf bilan boshlanuvchi so'zni topib aytadilar. So'z o'yini shu tarzda davom etadi.

Bu o'yin 1-sinflarda so'zlar, yuqori sinflarda esa maqollar, tez aytishlar, hikmatli so'zlar yoki she'riy baytlar vositasida o'tkazilishi mumkin. Bunday o'yinlarning o'tkazilishi o'quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, hozirjavoblikka, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bu o'yindan ona tili va o'qish darslarida dam olish daqiqalarida yoki darsni boshlashdan avval o'quvchilar diqqatini to'plab olish maqsadida foydalanish mumkin.

Masalan: Tabiat, taom, maymun, nok, kitob, botir, rayhon,

«O'yin-topishmoq». Bu o'yindan darsning ma'lum bir qismida kichik hajmda yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda katta hajmda foydalanish mumkin. U quyidagi tartibda o'tkaziladi. O'qituvchi biror bir narsani topishmoqlar yoki so'zlar vositasida uch marta ta'riflaydi. Birinchi ta'rif murakkab, ikkinchi ta'rif engilroq, uchinchi ta'rif esa juda engil bo'ladi. Birinchi

ta'rifdanoq to'g'ri javobni topgan o'quvchiga «3» ball, ikkinchi ta'rifda to'g'ri javobni topgan o'quvchiga «2» ball, uchinchi ta'rifda to'g'ri javobni topgan o'quvchiga esa «1» ball beriladi. Bu o'yinni bir o'quvchi bilan og'zaki yoki ko'pchilik o'quvchilar bilan yozma ravishda o'tkazish mumkin.

Bunday o'yinlar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, ularning fikrlash darajasini aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi.

Masalan:

1-ta'rif: Aytishlaricha, u shunaqa oq ko'ngil ekanki, mabodo biror kishini chaqib qo'ysa, xafa bo'lganidan, o'zi halok bo'lar ekan.

2-ta'rif: U hashorotning nomiga shirinlik nomi ham qatnashgan.

3-ta'rif: Guldan-gulga qo'nar u,

Sharbat yig'ib jo'nar u.

Yig'ib o'zi emaydi,

Uyasiga to'playdi.

Hosili men-u senga,

Kim nomin aytar menga?

(Asalari)

«Bu meniki». O'qituvchi harf yozilgan kartochkalarini o'quvchilarga tarqatadi. Har bir kartochkada har xil harf yozilgan bo'ladi. Shundan so'ng o'qituvchi so'zlarni o'qiy boshlaydi. O'quvchilar qo'llaridagi kartochkada yozilgan harf bilan boshlanadigan so'zni eshitishlari bilanoq «Bu meniki» deb javob berishlari shart. O'qituvchi so'zlarni tezroq o'qiydi, o'quvchilar ziyorlik bilan tinglaydi.

«Tez javob». O'qituvchi yoki boshlovchi o'quvchilar qatorini oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi va biror narsaning nomini aytadi. O'quvchi shu narsa mansub bo'lgan turga kiruvchi so'z topib aytishi lozim. Javob to uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqariladi. O'yin bitta o'quvchi qolguncha davom ettiriladi.

Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatadi, atrofdagi sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga qiziqishi ortadi.

Masalan: O'qituvchi: «Hayvon».

O'quvchi: «It».

O'qituvchi: «Badiiy film».

O'quvchi: «Abdullajon».

O'qituvchi: «O'quv quroli».

O'quvchi: «Daftar».

O'qituvchi: «Qizlar ismi».


O'quvchi: «Munavvar»

«Rebus». Rebus boshlang'ich sinf o'quvchilarida juda sodda ko'rinishda berilib, surat, belgilar asosida hal etiladigan boshqotirmadir.

Rebuslarni hal etish uchun, avvalambor, suratda nima tasvirlanganini topish lozim bo'ladi, shundan so'ng shartli belgilar asosida yangi so'z hosil qilinadi. Shu tariqa rebus hal etiladi va u erda qanday so'z yashiringani topiladi. Rebuslarda shartli belgilar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1.Rasm yonidagi biror-bir harf o'chirilib yoniga boshqa bir harf yozib qo'yilgan bo'lsa, demak, rasmda nima tasvirlangani topiladi va shu so'zdagi o'chirilgan harf o'rniga tegishli harf qo'yiladi.

Masalan:




Rasmdan «Besh» so'zini o'qiyamiz. «YE» harfi o'chirilgan va uning yonida «O» harfi turibdi. Demak, biz «besh» so'zidagi «YE» harfi o'rniga «O» harfini qo'yamiz va «bosh» so'zini hosil qilamiz.

2.«'». Bu belgi so'zning birinchi harfini olib tashlash lozimligini bildiradi.

Masalan:


'



«Kit» so'zining birinchi harfini olib tashlaymiz va «it» so'zini hosil qilamiz.

3.«,». Bu belgi so'zning oxirgi harfini olib tashlash lozimligini bildiradi.


Masalan:



Demak, «To'rt» so'zining oxirgi harfini olib tashlaymiz va «to'r» so'zini hosil qilamiz.

Masalan, quyidagi rebusda «Tinchlik baxt keltirar» hikmatli so'zi yashiringan.

2.3.2-rasm



«Krossvord». Krossvord o'yinini o'tkazish uchun o'quvchilar yoshiga mos holda juda sodda ko'rinishdagi krossvordlar tuzib olinadi. O'quvchilar mustaqil ravishda javoblarni topib yozadilar.


Krossvordlar dastlab o'qituvchi boshchiligida hal etiladi. O'quvchilarda krossvordlarni hal etish ko'nikmalari paydo bo'lgandan keyin o'qituvchi nazorati ostida mustaqil hal etadilar.

«Krossvord» o'yini o'quvchilar dunyoqarashini o'stirish bilan birgalikda ularning so'zlar ma'nosini yodda saqlab qolishlariga ham imkon beradi.

O'yin avvalida katakchalarga so'zlarni o'qituvchi yozib bergan bo'lsa, keyingi so'zlarni o'quvchilar ham navbat bilan yozishlari mumkin. Katakchalarni to'ldirishda o'quvchilarning bevosita ishtiroki ularning o'yinga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Agar krossvordda kalit so'z mavjud bo'lsa, katakchalar to'ldirib bo'lingach, o'qituvchi ajratib ko'rsatilgan (qalin chiziq bilan chegaralangan) katakchalarda yozilgan so'zlarni o'quvchilar bilan birgalikda o'qiydi.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda krossvordlardan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.



1. Onalar qo'shig'i.
2. Otamning opasi.
3. G'ildirakli qurilma.
4. Duradgor asbobi.

Harakatli o'yinlar

«U nima qilyapti?» («Pantomimo»). O'quvchilardan biri bolalar oldiga chiqib ovozsiz harakatlar qiladi. O'quvchilar jamoasi birgalikda uning harakatlarini izohlab berishlari lozim. Bunday o'yin o'qish va ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish bilan birgalikda ularni topqirlik va hozirjavoblik ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

«Jonli hikoya». O'qituvchi so'zlar yozilgan qog'ozlarni o'quvchilarga tarqatib, hikoya o'qib beradi (Qog'ozlarda yozilgan so'zlar birgalikda shu hikoyani hosil qiladi). O'qituvchi hikoyani ikkinchi marta o'qib berganda o'quvchilar qo'llaridagi qog'ozlarni shunday ketma-ketlikda joylashtirishlari kerakki, qog'ozlardagi yozilgan so'zlar bir butun gapni, gaplar esa hikoyani hosil qilsin. Bu o'yinni o'tkazishda darslikdagi hikoyalar yoki darslikdan tashqari hikoya va ertaklardan foydalanish mumkin.

«Quruvchi». Bu o'yindan o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, o'tgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. O'qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko'rib, qog'ozdan yoki penoplast bo'lakchalaridan «g'isht»chalar yasaydi va bu «g'isht»chalarga savol yozilgan qog'ozchalarni yopishtirib chiqadi. «G'isht»chalar soni o'quvchilar soniga teng yoki ko'p bo'lishi kerak. Guruhlarga «minora» yoki «devor» qurish uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va «g'isht»chani olib savolni o'qiydi. Agar savolga to'g'ri javob topsa o'zlarining «maydon»chalariga teradilar. Agar noto'g'ri javob bersalar o'qituvchi «g'isht»chani olib qo'yadi. O'yin shu taxlitda barcha o'quvchilar savollarga javob berib bo'lgunlariga qadar davom etadi. «Qurilish maydonchasi»da eng ko'p g'isht tergan o'quvchilar guruhi g'olib sanaladi.

Aralash tipdagi o'yinlar

«Iztopar». Xattaxtaga so'zlarning ba'zi bir harflari tushirib qoldirilib, terib qo'yiladi. «Iztopar» o'quvchi shu harfni harf kassasidan topib o'z o'rniga qo'yadi va hosil bo'lgan so'zni o'qiydi. To'g'ri topgan o'quvchi rag'batlantiriladi. Boshqa o'quvchilarda yana boshqa variantlar bo'lsa ko'rib chiqiladi. Bu o'yin, ayniqsa, savod darslari samaradorligini oshirish bilan birgalikda, o'quvchilarda mustaqillik va ijodkorlikni ham rivojlantirishga kçmak beradi.

«So'z o'yini». O'quvchilar guruhlariga yoki qatorlarga ajratiladi. Har bir guruh boshidagi o'quvchiga bir-biridan farq qiladigan harf yozilgan qog'oz tarqatiladi. O'yin boshlangunga qadar guruh ishtirokchilari qog'ozda qanday harf yozilganligini ko'rmasliklari lozim. O'qituvchi buyruq berishi bilanoq boshlovchi o'quvchilar qog'ozni o'nlab unda yozilgan harf bilan boshlanadigan so'z topib yozadilar, so'ng orqada turgan o'quvchiga uzatadilar. Orqada o'tirgan o'quvchi ham shu harf bilan boshlanadigan so'zni yozib keyingi o'quvchiga uzatadi. Shu taxlit barcha o'quvchilar so'z topib yozishlari lozim. Guruh yoki qator oxiridagi o'quvchi o'yin tugagach, qog'ozni o'qituvchiga keltirib topshiradi. O'yinni birinchi bo'lib tugatgan va so'zlarni to'g'ri yozgan o'quvchilar guruhi g'olib sanaladi.

«Sirli xat». Pochtachi kiyimidagi bola sinfga kiradi va shunday deydi: «Men bir qancha sirli xat oldim. Bu xat ustiga kimga tegishliligi yozilmagan. Unda faqat savollar yozilgan. Menimcha, kim shu savollarga to'g'ri javob bersa, xat shu o'quvchiga tegishli bo'ladi». Shundan

so'ng «pochtachi» xatjild ustiga yozilgan savollarni o'qiydi. Savollarga kim to'g'ri javob bersa xat o'sha o'quvchiga topshiriladi. Xatjild ichidagi qog'ozda rag'batlantiruvchi so'zlar yozilgan bo'ladi.

Bu o'yindan o'quvchilar diqqatini jamlash, ta'lim jarayonining qiziqarli bo'lishi va samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda didaktik o'yinlarni uyushtirishda darsning asosiy didaktik maqsadini hisobga olish lozimligi ko'rsatib o'tilgan. O'yindan darsning barcha bosqichlarida foydalanish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari har bir sinfda bir-biridan keskin farq qiladi. Olti-etti yoshli o'quvchilarning diqqati turg'un bo'lmasligi bois o'yinga ko'proq moyillik bildirishadi. Shu sababli dars davomida o'yinlardan ko'proq foydalanishga to'g'ri keladi.

Keyingi sinflarda o'quvchilar maktab sharoitiga ancha moslashadi, bilim olishga qiziqishlari oshadi. Endi ularni ancha jiddiy ishlarga tayyorlay borish mumkin. Ammo bu holat ta'lim jarayonida o'yinlardan foydalanishni kamaytirish lozim, degani emas. Agar 1-sinfda o'quvchilarni o'yin ko'proq qiziqitirsa, keyingi sinflarda o'yinning mazmuni, natijasini anglashga ehtiyoj tug'iladi. Ular o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini ko'rsatish imkoni bo'lgan o'yinlarda ishtirok etishga intila boshlaydilar.

Didaktik o'yinlar quyidagi 2 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarni darsgacha bo'lgan vaqtda tayyorlaydi. Tayyorgarlik shundan iboratki, o'quvchilar darsga kerakli o'quv qurollarini oldindan tayyorlaydilar, mavzuga oid materiallar bilan mustaqil tanishadilar, darslik va boshqa nazariy materiallarni ko'zdan kechiradilar.

2-bosqich: Bu bosqichda o'quvchilarga o'yin mohiyati tushuntiriladi, rollar bo'lib beriladi, manbalar bilan tanishtiriladi va o'yin amalga oshiriladi.

Didaktik o'yinlarni o'tkazishda o'qituvchining o'rni juda muhim. O'qituvchi o'yin va uning qonun-qoidalarini o'quvchilarga etkazadi va o'yinda bevosita ishtirok etib ular bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi, turli talablarni bajarishda namuna bo'lib xizmat qiladi, qo'shimcha ma'lumotlar berib boradi.

O'qituvchi didaktik o'yinlarni o'tkazishga tayyorgarlik jarayonida quyidagi talablarga rioya qiladi:

- tanlangan didaktik o'yinlar o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi;
- har bir o'yin pedagogik va psixologik jihatdan asoslangan bo'lishi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlashga yordam berishi;

- bir xildagi o'yinlarning ko'p takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik;
- o'yinni o'tkazishdan avval o'qituvchi ham, o'quvchilar ham puxta tayyorgarlik ko'rishi;
- o'yin yakunida g'olib va bilimdon o'quvchilarni rag'batlantirib borish.

Biz yuqorida misol tarzida keltirgan didaktik o'yinlar barcha qonun-qoidalar va prinsipial talablarga rioya qilib o'tkazilsa, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga samarali ta'sir qilishi shubhasizdir.

II.2. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yinli texnologiyalardan foydalanish yo'llari

Savod o'rgatish davrida qo'llaniladigan grammatik o'yinlar o'quvchi imkoniyatlarini to'la ishga solish, har bir tovush va harfning eng nozik tomonlariga alohida diqqat bilan qarashga undaydi. Bu davrda qo'llaniladigan grammatik o'yinlar ham hilma-hil bo'lib, o'quvchiga bilim berish, uni toliqishdan saqlash, o'zi bajargan ishdan zavqlanish imkoniyatini yaratadi. 1-sinf bolalariga bilim berish o'yin asosiga qurilsa samarali natijalarga erishish mumkin. Bu yoshdagi bolalarni toliqtirmaslik, o'qish va yozuv darslarini qiziqarli tashkil etish, sidirg'ali o'qish, husnixat malakalarini shakllatirish va mustahkamlash uchun yozuv mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilish, o'yin shaklida uyushtirish zarur. O'quvchilar bilan grammatik o'yinlar uyushtirilgan ekan, ularga barcha o'quvchilarni to'g'ri va chiroyli yozuvda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadigan o'quvchilarni ko'proq jalb qilish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetikadan bir qator bilimlarni egallaydilar. Unli, undosh tovushlarni talaffuz qilish va taqqoslash asosida farqlaydilar. Undosh tovushlarning jarangli va jarangsiz talaffuz etilishi, jufti bor va jufti yo'q jarangli va jarangsiz undosh tovushlar haqida amaliy bilim oladilar. Bu borada boshlang'ich sinflarda qo'llaniladigan tekshirish metodi tovushlarning jarangli yoki jarangsiz ekanligini anglab olish imkonini beradi. Bu o'z navbatida to'g'ri yozishda qo'l keladi. Shuningdek bu sinflarda bo'g'in va uning turlari, urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar, tovushlarning bir-biriga ta'siri haqida amaliy bilim oladi. Bularning barchasini o'zlashtirib olish bir qator murakkabliklar tug'diradi. Shu tufayli boshlang'ich sinflarda fonetikaga oid didaktik o'yinlardan foydalanish qo'l keladi.

“ So'z tuzish “ o'yini .

O`yin savod o`rgatish davrida o`tkaziladi . Bu o`yinlarni bajarish o`quvchilarga tovushning so`z hosil qilishidagi ahamiyatini to`laroq tushunib olish imkonini beradi. O`quvchilar ushbu o`yinda ishtirok etar ekan, so`zlarning turli- tuman usullar bilan hosil bo`lishi katta qiziqish uyg`otadi. O`zlari hosil qilgan yangi so`zlardan bevosita zavq olishga muvaffaq bo`ladi. So`z tuzish o`yini savod o`rgatishning tarkib –tahrir (analitik –sintetik) tovush metodi asosida bajariladi. Ushbu metodning ikkinchi qismi tuzish ,qurish ,birlashtirish singari ma`nolarni bildiradi. So`z tuzish o`yini ham aynan so`zga hilma-hil tovushlarni, bo`g`inlarni qo`shish orqali hosil bo`ladi. Bu o`yinni bajarishda so`zga turli hil usullar bilan tovush qo`shib yangi so`z hosil qiladi.

«Sirli kataklar» o`yini

O`qituvchi ko`rgazmani ko`rsatib, kerakli harflarni qo`yib so`zlarni o`qishni aytadi. Bunday ko`rgazmalar alifbe kitobining hamma mavzusida bor.kitobning sahifalarida o`rganilayotgan tovush va harf bilan bog`liq narsa –buyumlarning rasmi berilgan. Shu rasmlarning ostiga katakchalar ilova qilingan. Katakchalar soni harflar soniga teng bo`lganligi o`quvchilarning o`yinni to`g`ri bajarishiga yordam beradi.

o	l	-	m	a
---	---	---	---	---

k	i	-	t	o	b
---	---	---	---	---	---

Bu o`yinni uyushtirishda o`quvchilar guruhiga ikki-uchtadan shunday topishmoqlar beriladi.

“Bo`g`inlardan so`z tuzish” o`yini.

Xattaxtaga yozma harflar bilan *oila, ona, ana, tola, Lola, Ali* so`zlari yozib qo`yiladi. O`quvchilar kesma bo`g`inlar yordamida shu so`zlarni yozadilar. *L* tovushi so`zning qayerida kelayotganini aniqlaydilar. *L* tovushi qatnashmagan so`zlaning aralashtirilib berilishi o`quvchilar diqqatini orttiradi. Bunday o`yinlarni boshqa harflarni o`rganish davomida ham qo`llash mumkin. *D* harfini o`rganish jarayonida *Odil, Madina, Dildora, dala, dada, odob* singari so`zlarni kesma bo`g`inlar yordamida yozish mumkin. Birinchi bo`lib yozib bo`lgan o`quvchi o`yin g`olibi hisoblanadi va rag`batlantiriladi.

«Harflarni tanlab so`z tuz».

Xattaxtaning oldingi qismiga bir hil kattalikdagi harflar kartatekasi terib qo`yilgan. Ularda aralash berilgan harflar ishtirokida *Lola , bobo, kitob*, so`zlarini tuzish talab qilinadi. Ushbu harflar uch hil rangdagi kartonga yoziladi. Harflarni endi tanib olayotgan o`quvchilarga mo`ljallanadi. O`quvchilar dastlab o`qituvchi topshirig`iga asosan 1-bola *yashil* rangdagi, 2-o`quvchi *sariq* rangdagi 3-o`quvchi ko`k rangdagi; harflarni tanlaydi. O`zlari to`plagan harflarni ma`lum bir tartibda joylashtirib chiqib

b	o	b	o
---	---	---	---


L	o	l	a
---	---	---	---

k	i	t	o	b
---	---	---	---	---

soʻzlarini yozadi. Baʼzan xattaxtaga chiqqan oʻquvchi soʻzni tuza olmasa, oʻz qatoridan boshqa oʻquvchi chiqib toʻgʻirlashi mumkin. Bu oʻyin oʻquvchilarning kuzatuvchanligini oshiradi.

Jumboq rasm asosida matn tuzish

Oʻqituvchi Alifbening 13-betidagi *ana, non, ni, in* kabi soʻz va boʻgʻinlar asosida tuzilgan krossvord- jumboqda bitta gap, ikkita soʻz mavjudligini aytadi. Krossvorddagi strelka chiziqlar soʻzni toʻgʻri topib oʻqishga yordam berishi tushuntiriladi. Bolalar krossvorddan *ona, ana, nina* kabi soʻzlarni oʻqiydilar. Ularni bir butun holda oʻqisak oʻquvchilarga tanish boʻlgan *ona, ana, nina* gapi hosil boʻladi. Ushbu oʻyinni davom ettirib toʻgʻri chiziqlar boʻyicha boʻgʻinlarni qoʻshib oʻqisak yana qanday soʻzlar hosil boʻladi? Oʻquvchilar birin –ketin javob beradi. *Ni+na, ona, ana*, sozlari hosil boʻladi. *Nina* soʻzini oʻqishda oʻqituvchi yordamlashib turadi.



Orfografik oʻyinlar

Orfografik koʻnikmalar oʻquvchilarda asta- sekin shakllanib boradi. Oʻquvchilar qoidalarni turli xil mashgʻulotlar: koʻchirib yozuv, mashq ishlash, grammatik va orfografik tahlillar orqali oʻzlashtirib oladi. Ushbu qoidalarni oʻzlashtirib olishda ham bolalarning ixtiyoriy diqqatini bir nuqtaga toʻplash talab qilinadi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar juda ham oʻyinlarni yaxshi koʻrish bilan birga, oʻyin orqali baʼzi grammatik orfografik qoidalarni juda tez oʻzlashtirib oladilar va uni uzoq vaqt esda saqlab qolishadi. Shu tufayli orfografik qoidalarni oʻzlashtirib olishda ham turli xil oʻyinlardan foydalanish oʻqituvchiga katta yordam beradi.

«Bilagʻon boshliqlar» oʻyini

Bu o`yin ham orfografik o`yinlar turiga kiradi. O`quvchilar odatdagiday ikki guruhga bo`linadi. Har bir guruhning sardori belgilanadi. Ana shu guruh boshliqlari xattaxtaga chiqariladi. Guruh boshliqlari odatda a`lochi o`quvchilar bo`lishadi. O`yinda o`quvchilarning ana shu tomoni hisobga olinib, o`nta so`z xattaxtaga yoziladi.

<i>taassuf</i>	<i>mitti</i>
<i>mukammal</i>	<i>ikki</i>
<i>minnatdor</i>	<i>tabassum</i>
<i>tanaffus</i>	<i>xokkey</i>
<i>tashabbus</i>	<i>tennis</i>

Yuqorida berilgan so`zlarni har bir boshliq ustun shaklida yozadi. So`zlarning yozilishi kuzatiladi. Xatolar guruh bo`yicha hisoblanadi. Har bir guruhning boshlig`i yo`l qo`ygan xatolarni sanaydi. Birinchi guruh boshlig`i o`nta so`zdan ikkita xatoga yo`l qo`ygan bo`lsa, unga sakkiz ball beriladi. Har ikkala guruh boshliqlari so`zlarni tekshirib xatolarni sanab boradilar. To`g`ri yozilgan har bir so`z uchun ball beriladi. Agar biror guruhning o`quvchilari bitta ham xatoga yo`l qo`yishmagan bo`lsa, u holda qo`shimcha tarzda yana beshta so`z yoziladi. Oxirida g`olib guruh aniqlanadi va rag`batlantiriladi.

«Kim ko`p baliq tutadi» o`yini

Bu o`yin kichik maktab yoshidagi o`quvchilar orasida juda katta qiziqish uyg`otadi. O`yinni tashkil qilishda sinf partalarining qatoriga qarab o`quvchilar guruhlariga bo`linadi. Har bir guruhdan bittadan bola xattaxta yoniga chiqariladi. Mashg`ulotning bu turi o`quvchilarning yakka tartibdagi bilimlarini aniqlashga yordam beradi. Bolalar konvert ichiga solib qo`yilgan baliqchalarni olishadi. Baliqchalarning rasmi bor qog`ozning orqa tomoniga so`zlar yozib qo`yilgan. O`yinning sharti bir hil bo`lishi lozim. Bolalar konvert orqasidagi so`zlarni o`qib javobini topadi. Baliqchalarning tasviri bor qog`ozning orqa tomoniga yozilgan so`zlarni kuzatadi. O`qilgan mavzularni eslashadi. So`zning ma`nosini aytib, bo`g`inlarga ajratadi. Ushbu so`zdagi unli va undosh tovushlarning talaffuzini aytib bera olgan guruh o`quvchilari g`olib hisoblanadi. *Bug`doy* so`zida 2 bog`in, 6 harf va 6 tovush bor. *U, o* unli harflar; *b, g, d, y*, undosh harflar hisoblanadi. Bu o`yin o`quvchilarning ona tilidan berilayotgan bilimlarini qancha o`zlashtirib olayotganini aniqlash imkonini beradi. Agar guruhlarining xattaxtaga chiqqan o`quvchilaridan biri to`liq javob berolmasa, javobni ushbu guruhning boshqa a`zolari to`ldirishi mumkin. Lekin 1 ball kamayadi.

O`yin uchun so`zlar: *bahor, qizlar, sariq, o`qidi, buloq.*

«Zarur harfni topib qo`y» o`yini

O`yinning ikkinchi bosqichi bir oz murakkab bo`lib, o`quvchilarning turli xil tovushlardan bittasini tanlab olishlari talab qilinadi. Bu o`yin o`quvchini har bir tovushni o`ylab ko`rishga, so`zning leksik ma`nosini anglab olishga va kerakli tovushni tanlab qo`yishga o`rgatadi.

1. da.... tar (a, o, s, f, k)-daftar,
ma....don (o, y,sh, k, g`, l) maydon,
Qu....on (y, o, sh, q, r) –quyon
2. g`il....irak (d, m, s, z)- bed....zor (a, s,y, g`)
fo.....us (m, n, s, l)-fonus,
ma....ematika (a, o, u, t, i)-.....,
o`q...tuvchi (s, u, i, a)-.....,
ba...mal (q, k, x, h).....,
bu`....oq (s, l, o,k).....,
O`t....oq (l, sh, k)-.....

Qochoq boshliqni top

Bu o`yinda o`quvchining tovushlar va harflar yuzasidan olgan bilimlari mustahkamlanadi. Bosh va kichik harflarning ishlatilishi haqidagi nazariy bilimi takrorlanadi. O`yin sharti quyidagicha tushuntiriladi. O`qituvchi ko`chma xattaxtaga birinchi harflari tushirib qoldirilgan so`zlarni yozib qo`yadi. O`yin qatnashchilari kerakli harflarni topib so`zni to`liq yozadi. Berilgan so`zlar: arg`ona,uzrabot, ...erabod, erma,oyda,..... aram, iziriq.

Javob qo`yidagicha bo`ladi: *Farg`ona, Muzrabot, Sherabod, ferma, foyda, karam, Qiziriq.* Ushbu javoblardagi Sherabod va Muzrabod so`zlarining ikki xil shaklda yozilishi o`quvchilarda juda katta qiziqish uyg`otadi. O`qituvchi bolalarning mustaqil munozaralarini uyushtirib, *obod* va *rabot* so`zlari (toponimlar tarkibida kelgan indikatorlar) ning ma`nosini tushuntiradi. Natijada bu so`zlarning yozilishi o`quvchi xotirasida abadiy saqlanib qoladi.

O`yindan o`yin o`ylab topish o`yinini bajarish.

-rabot va -obod qo`shimchali so`zlar yozish o`yini.

- | | |
|--------------|---------------|
| 1.Xayrabot | 1. Yangiobod |
| 2.Qo`shrabot | 2.Xalqobod |
| 3.Toshrabot | 3.Chinobod |
| 4.Oqrabot | 4. Dehqonobod |
| 5.Xotinrabot | 5.Hayitobod |

Morfologik o`yinlar

Morfologik materiallar boshlang`ich sinflarda ancha keng o`rganiladi. To`rt yil o`qish davomida o`quvchilar so`z va uning ma`nolari, so`z shakli, so`zning morfologik tarkibi yuzasidan bir muncha bilimga ega bo`ladi. So`z turkumlari, uning asosiy, qo`shimcha va o`ziga xos belgisi ustida nazariy hamda ko`proq amaliy bilimlar oladi.

Boshlang`ich sinf ona tili o`quv dasturlari o`quvchilarning xususiyatlarini ularning yilma-yil aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan o`sib borishini hisobga olgan holda bosqichli ketma-ketlik tamoyili asosida tuzilgan. Shunga asosan har bir mavzuning o`quvchilar tomonidan oson o`zlashtirib olinadigan qismi quyi sinflarda murakkabroq qismi keyingi sinflarda o`rganiladi. Ba`zi so`z turkumlari boshlang`ich ta`limning hamma sinflarida o`rganiladi. Dastlab uning asosiy belgisi- narsa-buyum nomini, belgisini, sanog`ini va harakatini bildirishi o`rganiladi, o`quvchining shu olgan bilimlari asosida qanday so`roqqa javob bo`lishi singari qo`shimcha belgisi ham o`zlashtirilib olinadi. O`quvchilar sinfdan-sinfga o`tib ulg`ayib borishi bilan so`z turkumlarining o`ziga xos belgisi ham o`rganilib boriladi. O`quv materialining bunday o`rganilishi bir sinfdan egallangan bilimlarning keyingi sinflarda yana takrorlanishini taqozo etadi.

O`quvchiga beriladigan bilim bolalarning ilgarigi sinflarda olgan bilimlari asosiga quriladi. Bu o`quvchining ilgari olgan bilimiga tayanib xilma-xil grammatik o`yinlarni uyushtirish imkonini beradi. Chunki mavzu yuzasidan ma`lum darajada bilim va ko`nikmalar bo`lgandagina uyushtiriladigan grammatik o`yinda o`quvchining faol qatnashishiga imkon yaratiladi. Yana bir tomoni o`quvchi o`zida bor bilimlar asosida mashg`ulotga ijodiy yondashadi, faoliyat ko`rsatadi.

Morfologiyada o`quvchilar har bir grammatik xodisani o`xshash va farqli tomonlarini o`rganishadi. Ularni taqqoslash orqali turli grammatik o`yinlar uyushtirish mumkin. Bunday mashg`ulotni morfologiyani o`rganishga bag`ishlangan har bir darsda ham qo`llash mumkin. Masalan atoqli otlarni o`tganda uni turdosh ot bilan, kelishik qo`shimchalarni o`tganda ularni o`zaro taqqoslash mumkin bo`lsa, ot yasovchi qo`shimchalarni o`rganganda bir-biriga yaqin bo`lgan ikki so`z yasovchi qo`shimcha yordamida grammatik o`yin uyushtirish mumkin.

Boshlang`ich sinflarda morfologiya o`rnida so`z atamasi ishlatiladi. O`quvchilar leksikologiya va so`z yasashga oid bilimlarni ham so`z bo`limida o`rganishadi, shu tufayli biz ham tilshunoslikning yuqoridagi bo`limlariga oid o`yinlarni morfologik o`yinlar majmuasida berishni lozim deb bildik.

«Aksini aytish» o`yini.


Bu o`yin orqali o`quvchilarning qarama-qarshi ma`noli (antonim) so`zlar yuzasidan olgan amaliy bilimlari mustahkamlanadi. Aksini ayt o`yinini ham sinonim so`zlar yuzasidan o`tkaziladigan o`yin tartibida uyushtirish mumkin.

qattiq-yumshoq	kecha-kunduz
katta-kichik	uzun- qisqa
achchiq-chuchuk	tez-sekin
baland-past	oq-qora
shirin-achchiq	tuzli-tuzsiz
keng-tor	yaxshi- yomon


O`yinda qaysi guruh o`quvchilari javob topolmay qolishsa yengilgan hisoblanadi. Har bir o`quvchining qiziqish va faol harakatini ta`minlash maqsadida harakatli o`yinlardan ham foydalanishi mumkin. Buning uchun o`qituvchi bir so`zni aytib, uning qarama-qarshi ma`nosini ifodalovchi so`zni aytilishi uchun o`quvchiga ko`ptokni irg`itadi, o`quvchi javobni aytish bilan ko`ptokni yana o`qituvchiga qaytaradi. O`yin shu xilda davom ettiriladi. Sinf o`quvchilarining barchasi berilgan savolga javob topishga tayyor turadi.

«Anogramma» o`yini.


Qadimgi yunoncha " anadram-matision" so`zidan olingan bo`lib so`zdagi harflarning o`rnini almashtirish orqali boshqa so`z yasash demakdir. Masalan mosh-shom t, n, s, m, o, harflarini quyidagi kataklarga shunday joylashtiringki, diagonal bo`ylab uchlaridan o`qilganda to`rtta so`z hosil bo`lsin. Bu o`yin bolalarda katta qiziqish uyg`otadi. Markazdagi tovush orqali so`z hosil qilish bo`yicha aniq bilim oladi. Unli tovushning so`z hosil qilishdagi o`rni amaliy o`rganiladi.



1- Tom 3-Nos
2- Son 4-Mot




1-Lom 3-Mol
2-Shod 4- Dosh



1-Losh 3-Nok

2-Shol 4-Kon




1 – Tik 3 - Sim

2 – Kit 4 - Mis

1-anogramma: tom, son, mot, nos. 2- anogramma: lom, shod, dosh, mol. 3-anogramma:losh, shol, nok, kon. 4-anogramma: tik, kit, mis, sim. Ushbu o`yinni uyushtirishda markazga turli xil

tovushlarni qo`yib so`z tuzdirish ham mumkin. O`qituvchi anogramma shakllarini berganda markazdagi harfni ko`rsatadi. Boshqa harflarni o`quvchilar topishi zarur.






Bajarilishi: 1. ko`ch 3. to`s (yo`lni to`smaq)

2. cho`k 4. so`t

Anogramma o`yini o`rganilgan tovushlar yuzasidan o`quvchilarning bilimini kengaytirish va so`zning lug`aviy ma`nosini mustahkamlash maqsadida ham o`tkaziladi. Bunday hollarda o`qituvchi ma`lum bir harfni yoki harflarni berib so`z tuzdirishi mumkin. Masalan o`qituvchi "O" unli tovushining ishlatilishini mustahkamlash maqsadida quyidagicha topshiriq berishi mumkin Anogrammalarning o`rtasiga "O" tovushi qo`yilib so`z topish topshiriladi. Quyida o, i, u, harflari asosida so`z tuzish o`yini beriladi.

Bajarilishi



SH		M
----	--	---

S		K
---	--	---

B		Z
---	--	---

tom, mot, losh, shol.

Tik, kit, sim, mis.

Muz, zum, but, tub.

U, o`, *A* unli tovushlarini markazga olib quyidagicha topshiriq berish mumkin.

1)

	A	

2)

	U	

3)

	O`	

Bajarilishi

l		n
	A	
m		k


2)

m		b
	U	
t		z

3)

q		y
	O`	
q		l

Anogramma orqali ham juda ko`plab qiziqarli mashg`ulotlar uyushtirish mumkin. Yuqorida aytganimizdek, anogrammaning bir bo`g`inli so`zlar ustida o`tkaziladigan turlari keng tarqalgan. Ularda ko`pincha unli tovushlar markazga olinib o`yinlar o`tkaziladi. Vaqti-vaqti bilan o`quvchilarni qiziqtirish maqsadida markazga undosh tovushni olib anogramma o`yinlari ham o`tkazish mumkin. Bunday holda to`liq bo`lmagan bir tomonlama kesishgan so`zlardan foydalanish ham to`rt tomonlama kesishgan so`zlardan ham fo`ydalanish mumkin.




1. Ura

2. Ira bo`g`inli so`zlar ishti **2-Ila 4-Alo** uzish ustida ham ishlash mumkin.

B 3. Ari arda uning ikki tomonlama kesishgan usullaridan foydalanish mumkin. Ikki tomonlama kesishgan so`zlar. To`rt tomonlama kesishgan so`zlar. Ikki tomonlama kesishgan so`zlar to`rt tomonlama kesishgan so`zlar

1-Ali 3-Ola

2-Ila 4-Alo



Qalam,

lekin, nikel, bukul...

salom

Akram, marka, Marat, taram .

“Palindrom” o`yini

Palindrom- chapdan o`ngga va o`ngdan chapga ham bir xil o`qiladigan so`zlar topish o`yini hisoblanadi. Bu o`yin qadimgi yunonistonda vujudga kelgan. U “Palindromos” so`zidan olingan. Bizning tilimizga tarjima qilganda “teskari yuruvchi” degan mazmuni anglatadi. Bu o`yinni hamma yoshdagi kishilar ham zavq bilan o`ynashadi. Uzoq kuzatishlar natijasida ushbu o`yinning eng qiziqarli shakli ikki guruh bo`lib o`tkazish hisoblanadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilari bilan o`tkazilganda bir bo`g`inli so`zlardan ko`proq foydalanishadi. Tilimizda bir, Ikki bo`g`inli so`zlar ko`p uchraydi. Uch bo`g`inli so`zlar ham bor. O`yinni ikki guruh o`rtasida musobaqa tarzida o`tkazish quyidagicha amalga oshiriladi. Har bir guruh ishtirokchilari

xattaxtaga chiqib oldidan va orqasidan bir xil o`qiladigan so`z yozishi va so`zdagi harflar sonini ko`rsatishi talab qilinadi. O`yinning shartida guruhlariga beshta, o`nta, o`n beshtadan so`zni navbatma-navbat yozish talab qilinadi. O`quvchilarning tayyorgarligiga qarab istalgancha so`zlar sonini belgilash mumkin.

	I guruh	II guruh	
	1. non -3	1. tut -3	
	2. ko`k -3	2. bob -3	
	3. qoq -3	3. aka -3	
	4. alla- 4	4. arra-4	
	5. amma -4	5. katak -5	
Ko`rinib	6. Aziza-5	6. qiyiq-5	turibdiki, o`yin

davomida ikkala guruh ham oltitadan so`z yozdi. Birinchi guruhdagi bolalar yozgan so`zlardagi harflar soni 22 ta, ikkinchi guruh o`quvchilari yozgan oltita so`zda 23 ta harf ishlatildi. Demak ikkinchi guruh o`quvchilari g`oliblikni qo`lga kiritdi.

O`quvchilar uchun. Non, aka, ko`k, kek, bob, sas, lol, shosh, qoq, acha, mum, tut, amma, alla, arra, ushshu, obbo, qiziq, kiyik, kuchuk, qisiq, qochoq, qozoq, qiriq, qiyiq, Aziza, kichik, katak, quduq, quruq, karrak, kallak, tabobat Aqiqa, tarat, tal`at, Tashat (Toshmamat).

O`zidan so`z tuz (so`zdan so`z tuz) o`yini.

Bu o`yin ham palindrom kabi so`zni ikki tomondan o`qib so`z hosil qilinadi. Ammo bu o`yinda o`ngdan va chandan o`qiganda so`zning bir xil ma`no anglatishi shart emas. Aksincha so`zni chapdan o`ngga o`qiganda bir ma`no, o`ngdan chapga o`qiganda boshqa lug`aviy ma`no anglatuvchi so`z hosil bo`ladi. Ushbu o`yin bolalarning kuzatuvchanligini oshiradi. So`zning lug`aviy ma`nosini anglab olishga ijobiy ta`sir etadi. O`quvchini sergak bo`lishga odatlantiradi. Bunday so`zlar o`zbek tilida anchagina mavjud. Shu tufayli bunday o`yinni ikki o`quvchi bilan, guruh-guruh bo`lib ham, kichik guruhlariga topshiriq berib o`tkazish ham mumkin. Bunda ham so`zlardagi harflar soni hisobga olinadi. Qaysi guruh o`zi ishlatgan so`zda ko`p harf qatnashgan bo`lsa o`sha g`olib bo`ladi.

I guruh	II guruh	III guruh
1. sut-tus-3	<i>mol-lom-3</i>	<i>g`oz-zog`-3</i>
2. qo`y-yo`q-3	<i>Kon-nok -3</i>	<i>ota-ato-3</i>
3. amin-nima-4	<i>qori-iroq -4</i>	<i>lekin-nikel-5</i>
4. kalit-tilak -5	<i>Bobur-rubob-5</i>	<i>alak-kala-4</i>

5. <i>damas-Samad-5</i>	<i>Qora-arog-4</i>	<i>zamon-nomaz5</i>
6. <i>orzu –uzro- 4</i>	<i>Sanam-manas-5</i>	<i>Akram-marka-5</i>
24	24	25

O`yinning natijasidan ko`rinib turibdiki 1-2 guruh mag`lubiyatga uchradi. 3-guruh esa 25 ball to`plab, g`olib bo`ldi. Amin nima, anas- sana, baqo-oqab (suv) bois- siob, omma-ammo, azon-noza.

O`qituvchilar uchun so`zlar: *toza-azot, qil-liq (to`la) iris-sari, qo`l-lo`q, qiz-ziq, choq-qoch, mosh-shom, son-nos, lak-kal, kaz-pak, bobur-rubob, shod-dosh, tib-bit, qora-arog, kit-tik, tom-mot, fol-lof, fak-naf, qori-iroq, qorshi-shiroq, atir-rita, but-tub, zeb-bez, mol-lom, sho`x-xo`sh. Karim- mirak, Turob-borut, sanam-manas, alak-kala, orzu-uzro, zamon-nomaz.*

Takror bo`g`inlar o`yini

Bunday so`zlar tilimizda uncha ko`p ishlatilmaydi. Lekin ular oz bo`lsada tilimida tez-tez uchrab turadi. Bu o`yinni uyushtirishda ushbu so`zlarga o`quvchilarning fikrini qaratish uchun ular bir qator so`zlar orasida beriladi. O`quvchi so`zlar orasidan ularni topib olishi lozim.

1-kartochka

Opa, bola, chilchil, maktab, momo, kitob, dada, ikki.

2-kartochka.

Qo`y, sigir, ammo, bobo, manman, bola, boshla, marmar, singil, tog`a .

O`qituvchi uchun so`zlar: *manman, duldul, marmar, bobo, momo, dada, bulbul, vasvas, Zamzam, qirqir (qush) lolo (mul`tfilm qahramoni) simsim, sizsiz, chilchil (sinamoq) qatqat (somsa), jag`jag` (o`simlik), chakchak(ovqat), laklak.*

Xotira o`yini

O`yinni uyushtirish uchun avvaldan ko`rgazma tayyorlanadi. Ko`rgazmali vosita xattaxtaga ilinib qo`yiladi. O`qituvchi o`quvchilar diqqatini ko`rgazmaga jalb qiladi. Hozir xotira o`yini o`tkazilishini aytib, o`yinning shartini tushuntiradi. O`qituvchi ko`rgazmadagi so`zlarni ikki marta o`qib beradi. O`quvchilar uni eslab qolishga intiladi. Keyin ko`rgazma yopib qo`yiladi va o`quvchilardan galma-galiga so`zlar so`raladi. Ko`p so`zni eslab qolgan o`quvchi g`olib topiladi va rag`batlantiriladi.

I. Javon, kitob, parta, qo`ng`iroq, bo`r, baho, qor, qo`zichoq.

II. Daftar, paxta, qish, bahor, kuz, kitob, soat, o`quvchi, ustoz.

Bunday o`yin orqali o`quvchilarning xotirasi charxlanadi. Ularning darsga qiziqishlari oshadi. Bola faolligi ta`minlanadi. Sinfda qaynoq muhit hosil bo`ladi. Bu o`yindan yo`zuv

daralarida ko`rsatuv diktanti sifatida ham foydalanish mumkin. Bu o`yinni ikki o`quvchi o`rtasida galma-galiga o`tkazish ham yahshi natija beradi.

G`alaba cho`qqisi o`yini

Bu o`yinni o`tkazish uchun ikki o`quvchi xattaxtaga chiqariladi. Ularning har biriga bittadan unumli so`z yasovchi qo`shimcha beriladi. O`quvchilarning berilgan yasovchi qo`shimcha yordamida belgilangan miqdorda so`z tuzishi va xattaxtaga yozishi talab qilinadi. Bu o`yinni ot, sifat, fe`l so`z turkumlari o`tilganda uyushtirish mumkin. Ot so`z turkumini o`rganish jarayonida o`yinni qo`yidagicha uyushtirish mumkin.

«So`zni davom ettir» o`yini

Sinf o`quvchilari ikki yoki uch guruhga bo`linadi. Ular o`qituvchi bergan so`zga turli qo`shimchalar qo`shib aytadi. Har bir guruh navbat bilan so`z topishadi. So`z topolmay to`xtab qolgan guruh mag`lub hisoblanadi.

O`qituvchi *bog`* so`zini o`qiydi. O`quvchilar guruhi navbat bilan so`zga qo`shimcha qo`shib *bog`la, bog`bon, bog`ni, bog`dorchilik, bog`ning, bog`ga, bog`bon, bog`imiz...* kabi so`zlarni o`qiydi. Keyin navbatdagi so`z ham shunday o`qiladi. *Suv, suvchi, suvli, suvsiz, suvla, suvning, suvga, suvdan...*

O`yinni og`zaki o`tkazish mumkin. Ba`zan yozma shaklini o`tkazsa ham qiziqarli bo`ladi.

Qo`shimchalarni tanlab ol o`yini.

Boshlang`ich sinf darsliklarida ko`p uchraydigan qo`shimchalar beriladi, o`quvchilar ularni o`qib so`z yasovchi va so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarga ajratadi. Qaysi guruh tez va to`gri bajarsa o`yin g`olibi hisoblanadi. Ushbu o`yinni III-IV sinflarda o`quvchilar so`zning tarkibi mavzularini o`rganganlaridan keyin o`tkazsa bo`ladi. Qo`shimchalar aralashtirib beriladi.

-ni-la-chi-imiz-li-ning-da-kor-chan-ga-m-ing-dan-ingiz-k,lari-i-siz -soz-dor-dosh.

O`quvchilar uni quyidagicha bajarishadi.

1-guruh: - li,-la, -chi, -kor, -chan, -siz,-soz, -dor, -dosh-illa.

2-guruh: - ning, -imiz, -ni, -da-ga, -m, ing-dan, -lari-ingiz.

Bunday o`yinni har bir so`z turkumini o`rganish jarayonida maskur so`z turkumi yuzasidan o`quvchilar olgan bilimlarini mustahkamlash ma`qsadida ham o`tkazish mumkin. Masalan ot so`z turkumi o`tilganda so`z yasovchi va so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar yuzasidan yoki kelishik va egalik qo`shimchalari yuzasidan o`tkazsa ham bo`ladi.

Matn: *-la-ning-li-kor-ni-dan-dosh, zor-illa-ga-chi-ka qa-da.*

O`quvchilar uni quyidagi bajarishi mumkin.

1-guruh: *-la-li-kor, -dosh, zor, -illa, -chi.*

2-guruh: *-ning, ni,-dan, -ga, ka-qa-dan.*

“Domino” o`yini.

Ushbu o`yin o`quvchilarning so`z tarkibi yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash va amaliyotga tadbiiq etish ko`nikmalarini shaklantirish maqsadida o`tkaziladi. “Domino” o`yini o`tkazish uchun so`z yasovchi qo`shimcha yordamida tuzilgan yasama so`zlar (negizlar) ishtirokida so`zlar zanjiri tuziladi. Buning uchun o`quvchilarga bitta yasama so`z beriladi. O`quvchilar guruhlar bo`yicha galma-galiga negizlar ishtirokida zanjirni davom ettiradi. Davom ettirolmay qolgan guruh yengilgan hisoblanadi.

1. *Rejali-ibratli-intizomli-ilml-i-ishi-tuzli-shakarli-suvli-qorli...*

2. *Ilml-i-ishi-ghan,-naychi-ilmoqli-ishla-arrasiz-zotli- rubobchi...*

3. *Sinf-dosh-shovilla-a`lochi-inqilla-aqli-ishi-ijodkor-randala-anjirli-ilmoqdor...*

Keragini tanlab ol o`yini

Atoqli otlarning yozilishini o`zlashtirish uchun atoqli, turdosh ot sifatida qo`llaniladigan so`zlar topish o`yini o`tkaziladi. O`quvchilarga bu o`yinni bajarish uchun bosh va kichik harflar bilan berilgan so`zlar majmuasi beriladi ikki o`quvchi yoki o`quvchilar guruhi galma-gal xattaxtaga chiqib birinchi guruh bosh harfli so`zni, ikkinchi guruh kichik harfli so`zlarni ajratib yozadi.

1. Soat(ism)	-soat (uy anjomi)	Qutlug`- qutlug`
2.Gulzor	-gulzor	Quvonch- quvonch
3.Gulxayri	-gulxayri	O`roq- o`roq
4.Qo`zi(boy)	-q`ozi	Bolta- bolta
5.Aziz, Aziza	-aziz	Tesha- tesha
6.Tursun	-tursin	Olma- olma
7.Temir	-temir	Salqin- salqin

SINTAKTIK O`YINLAR

«Kerak so`zni tanlab ol» o`yini

Bu o`yin o`quvchilarni so`z birikmasi bilan amaliy tanishtiradi. Garchi bu sinflarda so`z birikmasi yuzasidan nazariy bilim berilmasa ham, u haqida o`quvchilar bir qator ma`lumotlar oladi. Amalda so`z birikmasi tuzadilar. Ushbu o`yinni o`tkazish uchun o`qituvchi ko`chma xattaxtaga so`zlarni ikki ustun qilib yozib keladi. O`quvchilar xattaxtaga so`zlar bilan tanishadi, keyin chap tomondagi so`zlardan mosini qo`yib ko`chirish topshiriladi. O`yinni butun sinf bo`yicha ham parta qatorlari orasida ham o`tkazish mumkin. Qaysi guruh topshiriqni tez va to`g`ri bajarsa, g`olib hisoblanadi. O`yin bolalarning ijodiyliigni

tarbiyalaydi, o`quvchilarda ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakasini shakllantirishga yordam beradi.

tez	qush
yam- yashil	bino
baland	ukam
sayroqi	bola
qiziqarli	kitob
mening	yuk
bilimli	gapirdi
og`ir	o`tloq
kuzgi	Ekin

«Undalmani top» o`yini

Ushbu o`yinni o`tkazishda undalmali va undalmasiz gaplar aralastirilib beriladi. O`quvchilar ikki guruhga bo`linib undalmali gaplarni aniqlab daftarlariga ko`chirib yozadilar. Ikkala guruhga ikki matn beriladi. Ba`zan ikkala guruhga ham bitta matn berilishi mumkin.

Matn

I

1. Bolalar zavq bilan o`qishdi.
2. Bolalar, qunt bilan o`qing.
3. Kitob, seni sevib o`qiymiz.
4. Kitobni berilib o`qiymiz.
5. Kitob bilim manbaidir.
6. Kitobim, seni doim ozoda saqlayman.


II

1. Maktabimiz o`quvchilari ozoda yurishadi.
2. Bolalar, maktabda intizomli bo`ling!
3. Maktab bilim o`chog`idir.
4. Maktab, sen bilan fahrlanaman!
5. Quyosh qizarib chiqadi.
6. Quyosh nurlariningni boshimizga tutaver cheksiz.

«Tilsim» o`yini

Tilsim o`yini bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o`stiradi. bu o`yinda soda gaplarning, ba`zan qo`shma gaplarning andazasi beriladi. Gapni tashkil etishda ishtirok

etayotgan har bir soʻzning necha harfdan iboratligi va qaysi tovush bilan boshlanishi koʻrsatiladi. Oʻquvchilar gapning sxemasini kuzatib har bir soʻzning birinchi tovushini bir necha bor ichda oʻqiydi. Qolgan tovushlarni topgach gap tarkibidagi soʻzlarni berilgan andoza boʻyicha toʻldiradi.



Yuqorida berilgan gapda oʻzbek xalq maqollaridan biri yashirilgan. Oquvchilar oʻqitilgan maqollarni eslab ushbu maqolni topadilar. Agar oʻquvchilar maqolning javobini topishga qiynalsalar har bir soʻzning oxiridagi harfdani ham koʻrsatib qoʻyish yoki birinchi soʻzni toʻliq yozib koʻrsatish mumkin. Bir necha marta bu oʻyinni takrorlangandan keyin oʻquvchilar topishmoqlarni tez topa oladigan boʻladi. Yana bir tomoni har bir soʻzning necha tovushdan iboratekanligini aniq belgilab oladi. Oʻquvchilar yuqoridagi maqolni quyidagicha yozadi.

Oltin olma, olqish ol,

Olqish oltin emas?

Rebus

Maktab oʻquvchilarining qiziqib bajaradigan mashgʻulotlaridan biri rebuslar hisoblanadi. Oʻquvchi rebuslarni bajarish, oʻqish uchun fikrlashi, izlanishi va ijodiy faoliyat koʻrsatishi zarur. Rebuslarda aytilayotgan fikr toʻgʻridan-toʻgʻri harflar orqali bayon qilinmay, narsalar va turli xil belgilar vositasida beriladi. Oʻquvchi ularni kuzatib, belgilarni soʻzga aylantiradi. Matnda berilgani kabi ayrim soʻzlarni bir butunligicha olsa, baʼzilaridagi harflarni almashtirishi, yoki harf qoʻshish orqali rebusni oʻqiydi. Bu mashgʻulotlarda tovushlar va harflar ustida uch xil ish bajaradi: tovush almashtiriladi, tovush qoʻyiladi, tovush tushiriladi. Ularning har birini bajarishda muallif tomonidan matnda berilgan ishoralariga amal qilinadi. Bunday mashgʻulotni bajarish oʻquvchining fikrlashini oʻstiradi, bir qator soʻzlarning yozilishini bilib olishga yordam beradi. Oʻz navbatida maqollar, hikmatli soʻzlar, oforizmlarni mustahkam, esda saqlab qolish imkonini beradi. bularning barchasi bola tasavvurining kengayishi va mavhum tafakkurining oʻsishiga olib keladi. Rebuslar bugungi kunda paydo boʻlgan mashgʻulot emas. Uni birov oʻylab chiqqani ham yoʻq.

Rebuslar tarixini uzoq oʻtmishdan izlash mumkin, chunki rasm jumboqlar qatoriga tosh yozuvlari va ierogliflarni ham qoʻysa boʻladi. Adabiy rebuslarning boshlanishi esa XI asr

Pikardiya (Fransiya)dagi voqealar bilan bog'liq. Bu yerda har yili so'zamollar "de rebus dual geruntum" (bo'layotgan ishlar haqida rasmi qiziq sharhlar) tuzishardi. Davrlar o'tishi bilan "rebus" (ya'ni "narsalar yordamida") nomigina saqlanib qoldi. 1582-yili Eg'en Taburo (1548-1590) rebuslarning dastlabki to'plamini tayyorladi.

Rebusda qandaydir jumboq ifodalanadi. O'quvchi uni mavhum fikrlash orqali o'qib oladi. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsliklarida ham bir qator rebuslar berilgan. Ular o'quvchilarning yoshini, fikrlash faoliyatini hisobga olib, sodda shaklda tuzilgan. Bir qaraganda ularni tushunish ko'p qiyinchilik tug'dirmaydi. Biroq uni to'g'ri bajarish, o'qituvchi faoliyatiga bog'liq. 1-sinf o'qish kitobining 38- betida quyidagicha rebus berilgan.




1-rasm.

Uni bajarish uchun dastlab rasmlar diqqat bilan kuzatiladi. Har bir predmet rasmi aniq belgilab olinadi. Shundan keyin rebusda ifodalangan so'zlar aniqlanadi.

O'quvchilar bilan har xil rebuslarni yechish va ularni rebuslar tuzishga o'rgatish orqali qiziqarli o'yinlar uyushtirish mumkin. Bu mashg'ulot o'quvchining so'z boyligini oshiradi.²Lug'atidagi so'zlardan ijodiy foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi, o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi. Eng muhimi har bir narsaning xususiyatlarini diqqat bilan kuzatishga odatlantiriladi. Bu o'yin o'quvchilarning eng sevimli mashg'ulotiga aylanib qoladi. Ular har bir so'zni yozma nutqida avaylab ishlatishga o'rganadilar.

Faqat rasmlardan iborat bo'lgan rebuslar ustida ishlash yuzasidan o'quvchilarda ba'zi bir ko'nikmalar hosil qilinadi. Har bir rasm ifodalagan so'z kuzatiladi. Dastlabki tayyorlov davrida o'quvchilar tovush va harflarsiz narsa-buyum ifodalagan so'zlar ishtirokida yangi so'z tuzish mashg'ulotlarini bajaradi.

²Sodiqov A. va b. Tilshunoslikka kirish T. "O'qituvchi" 1981y. 82-b.



2-rasm.

Bundan keyingi mashg'ulotlarda faqat rasmlar bilan chegaralanib qolinmay, murakkabroq bosqichga tomon yuriladi. Avvalo rasmlar muhokama qilinib, ular ifodalagan so'zlar kuzatiladi. Keyin o'quvchilarda ana shu so'zlarga tovush qo'shib yangi so'z hosil qilish ko'nikmasi shakllantiriladi. O'quvchilar rasmlar va harflarni bir-biriga qo'shib o'qish ko'nikmalarini egallaydi. Bunda ham dastlab eng sodda mashqlar olinadi. Bunday mashg'ulotlardan biri bir rasimli va bir harfli oddiy rebuslar hisoblanadi.

1 B +  = B + OSH = BOSH

2 T +  = T + OSH = TOSH

3 Q +  = Q + ULOQ

4 CH +  = CH + OY = CHOY

5  + A = TOL + A = TOLA

6 S +  = S + OY = SOY

7 K +  = K + UY = KUY

8 S +  = S + UY = SUY

3-rasm .

O'quvchilar bunday rebuslarni yechish usullari bilan tanishib o'zlari ham elementar rebuslar tuzish ko'nikmalarini hosil qilishadi.

Bu mashg'ulot o'quvchilarning rasmlar ifodalagan so'zga tovush (harf) qo'shib yangi so'z hosil qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

O'quvchilar yuqoridagi rebuslarni bajarib ma'lum darajada bilimga ega bo'lgach, biroz murakkabroq shaklga o'tish mumkin. Pedagogika fanining asosiy tamoyillaridan biri ham oddiydan murakkabga borishni, oddiy mashg'ulotlarda ma'lum darajada ko'nikma hosil qilganlaridan keyin murakkabroq mashg'ulotlarga o'tishni taqozo qiladi. Shuning uchun keyingi mashg'ulotda bir rasimli va bir bo'g'inli rebuslarni o'rganish mumkin.




+ ZOR = GULZOR




+ CHI = GULCHI


SER +  = SERQUYOSH




+ LI = QUYOSHLI



+ OB =
KITOB

DU +  = DUTOR

Maktab o'quvchilariga rebus tuzishni o'rgatishning navbatdagi bosqichida rebusda ishtirok etuvchi rasmlar va tovushlar miqdori kengaytirib boriladi. O'quvchilarning ilgari mashg'ulotlarda olgan bilimlari asosida bu rebuslar bajariladi. Biroq bularning barchasida o'qituvchi ham, o'quvchilar ham faol qatnashadilar. Bunday o'yinlarda o'quvchilar rasmlarni so'zga aylantirishda ko'proq fikrlaydilar. Bora-bora ta'limiy rebuslarda rasmlar salmog'i oshib boradi. Endi o'quvchilar ikki rasmi va bir tovushli yoki ikki rasmi va bir necha tovushli reburlarni tahlil qilib o'qiydi. O'zlari ham ana shunday rebuslarni tuzishga harakat qilishga o'tishadi. Dastlab ba'zi qiyinchiliklarga uchrashsa ham, asta-sekin bunday rebuslar tuzishga o'rgana boradilar. Bunday rebuslarning o'quvchilar tushunishi mumkin bo'lgan darajadagi murakkabligi hisobga olinadi.




6-rasm.

Rebuslarning javobini aniqlash rasmlarni kuzatishdan boshlanadi. O'quvchilar parta qatorlarining joylashishiga qarab 3 guruhga ajratiladi va rebuslarni bittadan bo'lib olishadi. Har bir qatordagi o'quvchilar o'zlariga tegishli rebusda ishtirok etgan rasmlarni kuzatadi. Rasmda ifodalangan narsalar haqida bilganlarini gapirib berishadi. Shundan keyin rasmdagi narsa va buyumlar ifodalagan so'zlarni doskaga yozishadi.

Dastlab, sodda yig'iq gaplar keltirib chiqariladi. Keyingi mashg'ulotlarda ikkinchi darajali bo'laklar ishtirok etgan gapni ifodalovchi rebuslar ustida ishlanadi.

Yuqoridagi singari sodda va qo'shma so'zlar yuzasidan rebuslar tuzish ko'nikmasidan keyin so'z birikmalari va sodda gaplar yuzasidan rebuslar tuzish va tuzilgan rebuslar o'qishga o'rgatish mumkin.



7-rasm

Yuqoridagi rebuslar ilgarigilaridan bir qator murakkabliklari bilan farq qiladi. Bu boshqotirmalarda avvalo belgi, rasmlar ko'p, ikkinchidan ular ifodalayotgan gramatik birliklarning hajmi ham kengayib borayotgani ko'rinib turibdi. Bunday mashg'ulotlardan keyin o'quvchilar sekin-sekin rebuslarni ma'lum darajada tushungan holda o'zlari ham murakkabroq jumboqlarni tuzishga o'rgana boradi. Ushbu rebuslarni to'g'ri bajarish uchun o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar muhokama yuritib, o'zlari xulosa chiqaradilar.

Gap yuzasidan tuzilgan rebuslarni o'qishda o'quvchilar xilma-xil tovush o'zgarishlarini amaliy bajarib ko'radi. Bunday rebuslarda rasmlar fikrni bayon qilishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bayon qilinayotgan fikrning muhim ma'nosi rasmlarda ifodalanadi. Ammo faqat rasmlar gap yoki matn mazmunini to'liq ifodalay olmaydi. Jumboqni yechish, unda bayon qilingan gapni to'g'ri topish uchun tovush qo'shish, tovush almashtirish va tovushni tushirish usullaridan samarali foydalaniladi.

Tovush ustida ishlashning turli usullaridan foydalanish bilan bir qatorda bo'g'in ustida ham ma'lum darajada mashg'ulotlar amalga oshiriladi. Rebusda bayon qilingan gapni topish uchun bo'g'inlarni qisqartirish, bo'g'in qo'shish va bo'g'inlarni butunicha almashtirish usullaridan foydalanadi.

Dastlab bu mashg'ulotlarni o'zlashtirib olish o'quvchilarda ayrim qiyinchiliklar tug'dirsa ham, bora-bora bolalar unga juda qiziqib qolishadi. Ba'zi o'quvchilar rebuslar tuzib, o'zlari ijod qilgan jumboqlarni birovga ko'rsatishni juda yoqtirishadi. Boshqalar bu rebuslarda yashiringan gaplarni aniqlaganda olam-olam quvonch oladi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf darslarining asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, mustahkam bilim hosil qilish, jamiyatning hamma sohalarida ijodiy faoliyat ko'rsata oladigan savodli va madaniyatli kishilarni tarbiyalab etishtirishdan iboratdir. Umumiy ta'lim maktablarining asosiy vazifalari yosh avlodga fan asoslaridan chuqur va mustahkam bilim berish, ularni amalda qo'llash malakalarini yaratishdir. Bu vazifani amalga oshirishda savod o'rgatish jarayoni mas'uliyatli davr hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf darslarini qiziqarli tashkil etish bilim o'zlashtirish jarayonidagi mashaqqatlarni osongina engib o'tishga yordam beradi. Shu maqsadda bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida izlanishlar olib bordik, boshlang'ich ta'limning tarixi va mazmuni, didaktik o'yinlar, ularning turlari bilan tanishib chiqdik va tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Natijada, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Boshlang'ich sinf darslari uzluksiz ta'lim tizimida bilimli yoshlarni tayyorlashdagi muhim davr hisoblanadi. Shu sababli doimiy ravishda amaliyotchi o'qituvchilar, tadqiqotchilar metodist olimlar faoliyatining muhim tadqiqot ob'ekti bo'lib kelmoqda.

2. Boshlang'ich sinf darslari asosan alifbe, ona tili va o'qish darslari shaklida amalga oshirilib, bunday darslarda analitik metod, sintetik metod, harfiy metod bilan birgalikda ta'limiy o'yinlardan ham keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

3. Kichik maktab yoshidagi bolalar hayoti va faoliyatida asosiy etakchi o'rin tutadi. Ular har bir topshiriq yoki vazifani o'yin bilan uyg'unlashtirgan holda amalga oshirishga harakat qiladilar. Tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'yindan bolalar uchun yangi va murakkab bo'lgan ta'lim jarayonini qiziqarli tashkil etish usuli sifatida foydalana oladilar.

4. Ta'limiy o'yinlar boshlang'ich ta'lim jarayonini qiziqarli tashkil etish bilan birga bolalarni aqlan va jismonan chiniqtirish vazifalarini ham o'taydi.

5. Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili va o'qish darslarining tashkil etilganligi joriy holatini o'rganish asosida hanuzgacha ta'limiy o'yinlarning imkoniyatlaridan to'liq foylanilmayapti, degan xulosaga keldik.

6. Boshlang'ich ta'lim jaraonida didaktik o'yinlardan foydalanishga doir metodik qo'llanmalar, ko'rsatmalar, ko'rgazmali qurollar tayyorlanishi va nashr etilishi hozirgi kun talablaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.–Toshkent: O'zbekiston, 1992. - 48 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. –20-29 b.
1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.- 31-61 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. -683 b.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraššiyotining poydevori. Barkamol avlod orzusi. -Toshkent: Sharq, 1999. – 8-30-b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -Toshkent: O'zbekiston, 1998. –48 b.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'zbekiston, 1992. -178 b.
6. Aliev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. –Toshkent: O'qituvchi, 1991. – 40 bet.
7. Artemova L.V. Okrujayuiy mir v didakticheskix igrax: Kniga dlya vospitatelya detskogo sada i roditeley. – Moskva: Prosveenie, 1992. 97 str.
8. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. - Toshkent: O'situvchi, 1985. - 290 bet.
9. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida O'yin topshiriqlaridan foydalanish: Ped.fan. nom. ...dis. –Toshkent, 1996. –146 b.
10. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Oliy o'quv yurti uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2000.
11. Zunnunov A. Xayrullaev M., Hotamov N., Shodiev D. O'rta Osiyoda pelagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. –Toshkent, 1996. –350 bet.
12. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika.-Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 510 b.
13. Ne'matov H., G'ulomov A., Ziyodova T. So'z boyligini oshirish. –Toshkent: O'qituvchi, 1997. –98 b.
14. Nishonova S. Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Ped. fan. dok. ... dis. –Toshkent, 1998. –288 b.
15. Pedagogika. Pedagogika oliy O'quv yurtlari uchun darslik/ A.K.Munavvarov tahriri ostida. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 200 b.
16. Ta'lim taraqqiyoti // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi. –1999. -№7. - Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent: Sharq, 180 bet.

17. Tolipova R.T. O'yin - o'zbek maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari ruscha nutqini o'stirish vositasi sifatida. – Toshkent, 1971. - 225 b.

18. G'afforova T., G'ulomova X., Eshturdieva G. 1-sinfda savod darslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. -127 b.

19. G'afforova T., Nurullaeva Sh. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar. –Qarshi: Nasaf,2003.–54 b.

20. G'afforova T., Nurullaeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. –Toshkent: Ilm ziyo, 2004. –80 b.

ILOVALAR

1-ilova

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan o'tkazilgan anketa so'rovnomasi savollari

1. Boshlang'ich ta'lim jarayonida ta'limiy o'yinlarning o'rni qanday deb hisoblaysiz?
2. Ta'limiy o'yinlarga doir qanday metodik adabiyotlar bilan tanishsiz?
3. Boshlang'ich ta'lim jarayonida qanday metodlardan foydalanasiz?
4. Didaktik o'yinlarga sizning munosabatingiz qanday?
5. Didaktik o'yinlardan boshlang'ich sinf darslarining qaysi qismida ko'proq foydalanasiz?
6. Boshlang'ich sinf darslarini qiziqarli tashkil etish uchun qanday tavsiyalar berasiz?